

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA UZUNLIK O'LCHOV BIRLIGINI O'RGATISH ORQALI TIMMS XALQARO TATQIQOTIGA TAYYORLASH

Usmonova Matluba Sattarovna
Guliston shahar 17-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6281018>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslari orqali xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash hamda uzunlik o'lchov birliklarini bilan kundalik faoliyatda to'g'ri va o'rinli foydalanishga haqida so'z boradi.

Hozirgi kunda yoshlarning, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor kundan kunga kuchayib borayotganligi hech kimga sir emas. Bu borada bir nechta vazirliklar, turli idora va tashkilotlar tinimsiz ish olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF 5338-son farmoni ijrosi yuzasidan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Konsepsiyaning 4-bobida "konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishda quyidagi ko'rsatgichlarga erishish nazarda tutiladi:

- STEAM fanlari va tanqidiy fikrlash va axborotni mustaqil izlash va taxlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda zamonaviy, innovatsion va iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlari joriy etiladi;


- Xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yisha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMMS, PIRLS va boshqalar)da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanadi",- deb belgilab qo'yilgan.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish maqsadida Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Milliy o'quv dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflari uchun yaratilgan "Matematika" darsligi bundan avval amalda bo'lgan darslikdan tubdan farq qiladi. Yangi darslikning ilk mavzularidanoq bolalar butun olam, borliq bilan tanishtiriladi va shu kungacha 7 yoshli bolaga o'qitilish nazarda tutilmagan "To'plam" tushunchasi bilan insonlar, bizni o'rab turgan narsalar orqali tanishtiriladi.

Uzunlik o'lchov birliklari bilan tanishtirishda bolalarga kundalik hayotda bor bo'lgan va o'zlari o'sha narsalardan tez-tez foydalanib turadigan narsalarning uzunligini qiyosiy o'lchashga doir bir qancha mavzular keltirilgan Ularga uzun, uzunroq, kalta, qisqa so'zlari nimani anglatishi yaqqol ko'rsatilgan. Bola o'zi qo'li bilan ushlab, ko'zi bilan ko'rgan, belgi-xususiyatlarini sezgilari bilan his qilgan narsalarning ustida "tajribalar" o'tkazsa, ya'ni dars davomida bolaga begona bo'lgan narsalardan foydalanishdan ko'ra ancha samaraliroq bo'ladi.

Har bir o'qituvchi yangi darsga tayyorgarlik ko'rishda barcha o'quvchilarning o'zlarida bor bo'lgan predmetlardan foydalansa bu mavzu bolaning hech qachon yodidan chiqmaydi. Qolaversa, ularda hosil bo'lgan bilim ko'nikmadan malakaga ko'chishi kafolatlanadi. Uzunlik o'lchov birliklari bilan tanishtirishda bitta predmetning turli o'lchamlaridan foydalanish darsning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

2-sinf o'quvchilari o'quv yilining 3-choragida millimetr, santimetr, detsimetr va metr uzunlik o'lchov birliklari bilan tanishtiriladi. Bunda ularning eng kichigi qaysi-yu eng uzuni qaysi ekanligini xotirada yaxshi saqlab qolishlari uchun har bir bolaga yaxshi tanish bo'lgan kaptokni misol qilib keltirishimiz mumkin. Buning uchun o'qituvchi oldindan turli kattalikdagi ya'ni halmdagi kaptokchalarni tayyorlab oladi. Ularning eng kichikinasiga millimetr, undan kattarog'iga santimetr, undan ham kattasiga detsimetr va eng kattasiga metr deb nom qo'yadi va har biri ikkinchisidan 10 martta katta ekanligi eslatib o'tiladi.



Bunday usullardan foydalanilsa bolalar "tabiatdagi barcha narsalarni o'lchash mumkin ekan", - degan xulosaga keladilar. Mavzuni mustahkamlash uchun ikkita bir xil rangli, ammo turlicha uzunlikka ega bo'lgan qalamlar olinib, o'quvchilarga uylarni ta'riflab berishni takif qiladi. O'qituvchi bolalarning javobini yo'naltiruvchi savollar bilan ularnig diqqatini aynan qalamlarning uzunligiga qaratadi, ya'ni ularning biri uzunroq ikkinchisi qisqaroq ekanligini qalamlarni bir-biriga taqqoslash yo'li bilan isbotlashga erishadi. O'qituvchi bunday mashqlarni aynan boshqa predmetlarda, modellar, turli rasmlarda davom ettirib o'quvchilarda har bir predmet uchun zaruriy bo'lgan sifat - uzunlik bo'lishini ularni bir-biriga taqqoslash yo'li bilan hamda chamalash yo'li bilan aniqlash mumkinligi tushuntiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ana shu kabi amaliy mashg'ulotlardan so'ng o'quvchilar uzunlikni o'lchash uchun o'lchov birligi santimetrni qo'llash zarurligi haqidagi xulosaga olib kelinadi. O'qituvchi bolalarni chizg'ich bilan tanishtirib, chizg'ich yordamida kesmalarning uzunligini o'lchash qoidalari tushuntiriladi. O'quvchilar bir nomdagi o'lchamlarda berilgan uzunliklarni qo'shish va ayirish, kesmalarni uzaytirish va qisqartirish, ularni taqqaoslash, uzunliklar umumiy yig'indisi, jamlanmasini topish kabi mashqlarni mustaqil bajara oladilar. Bunday natijalarga erishishda o'qituvchidan bolalarning yosh xususiyatini, yashash muhitini, atrofini o'rab turgan narsalarga bo'lgan munosabatini, ularning ichki dunyosini birinchi darslardanoq o'rgabib, ularning har birining aqliy salohiyatlarini aniqlab olishi kerak bo'ladi. Shundagina darslar jarayonida har bir bolaning o'ziga mos bo'lgan topshiriq berib boradi. Bunda har bir

o'qituvchidan yuksak mahorat talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.E.Jumayev, Z.G'. Tadiyeva "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" "Fan va texnika" nashryoti. Toshkent - 2005
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik Toshkent - 2021.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik Toshkent - 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
5. Internet ma'lumotlari.